

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Energiya tejamkor binolar uchun yangi turdagi polimer kompozit sendvich panellarni ishlab chiqish va qurilish sohasiga joriy etish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: mahalliy mahsulotlar, polimer bog‘lovchilar hamda issiqlik izolyatsion o‘zak materiallari negizida yuqori mustahkamlikka ega, energiya tejamkor va ekologik jihatdan xavfsiz polimer kompozit sendvich panellarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi; devor sendvich panellari yaratiladi; tom yopma sendvich panellari yaratiladi; sovutkich va logistika majmualari uchun issiqlik izolyatsion panellar yaratiladi; sanoat va fuqaro binolari uchun tashqi qoplama panellari yaratiladi; modulli binolar uchun polimer kompozit sendvich panellari yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan polimer kompozit sendvich panellar akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda mexanik, fizik-mexanik, issiqlik o‘tkazuvchanligi, yong‘inga bardoshlilik, namlikka, atmosfera ta’siriga va uzoq muddatli ekspluatatsion sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi korxonaning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.